

**Amir Abdurahmon davrida Afg'oniston va Rossiya imperiyasining
o'zaro diplomatik aloqalari**

Baratov Dilshod

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *Stoletov missiyasi, Amir Abdurahmon, diplomatik aloqalar, Rossiya imperiyasi, Kobul, A.V.Komarov, Aleksandr III, elchilik, qabul marosimi*

Ma'lumki, 1878-yilda tashkil etilgan Stoletov elchiligi o'z nohoyasiga yetgach, Afg'onistondagi siyosiy vaziyatlarda tub burilishlar sodir bo'ladi. Bu kabi voqealarning zamirida Buyuk Britaniya bilan boshlangan ikkinchi ingliz-afg'on urushi yotar edi. Chunki Sheralixon qanchalik urunmasin inglizlar bilan kelisha olmaydi. Buning ustiga esa rus elchilaridan ham ko'zlangan natija bermagach, Afg'oniston hukmdori ikki imperiya o'rtasidagi ojiz davlat rahbariga aylanib qolgan edi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan u faoliyatining oxiriga qadar Afg'onistondan inglizlarni chiqarib yuborish harakat qilgan edi. Uning oxirgi xalqaro konferensiya chaqirish va ushbu jarayonda Britaniyaning Afg'onistondagi faoliyatini qoralash orqali ularni mamlakatdan chiqarib yuborish maqsadi ham amalga oshmasdan qoladi¹. Chunki bu jarayonda Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi olib borgan siyosati unga yo'l bermagan edi.

1878-yil dekabrda Sheralixon taxtni o'g'li Yoqubxonga topshirib rus podshosi oldiga borish, uning ko'magida Afg'onistonni inglizlardan himoya qilishga harakat qiladi. Ammo bu vaqtda xalqaro maydonda endigina rus-turk urushi o'z nihoyasiga yetgan, Peterburg uchun inglizlar bilan hech qanday qarama qarshilik kerak bo'lmagan vaqt edi. Shu tufayli Turkiston general-gubernatori fon Kaufman Afg'oniston amirini Rossiyaga o'tkazmaslikka harakat qiladi. Oxir kasallikdan so'ng Sheralixon 1879-yili fevral oyida Mozori sharif shahrida vafot etadi². Endilikda, Rossiya imperiyasi va Afg'oniston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar uchun yangi davr boshlanishi tobora aniqlasha boshlagan edi.

Bu holatga, albatta, Afg'oniston hukmdorining siyosiy maqsadlari ta'sir qilgan edi. Yoqubxon o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida inglizlar bilan olib borilayotgan urush harakatlarini to'xtatish lozim deb hisoblab, 1879-yil 26 may kuni Gandamak shartnomasini imzolaydi. Bu shartnomaga binoan Afg'oniston Buyuk Britaniyaga vassal davlat sifatida e'tirof etiladi, Shuningdek, xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalar yuritish huquqidan ham mahrum etiladi.

¹ Mannonov A.M., Abdullayev N.A., Rashidov R.R. Afg'oniston tarixi. - T.: Barkamol fayz media, 2018. -138 b.

² В. М. Массон, В. А. Ромодин. История Афганистана. -М.: Наука, 1965. -267 С.

Inglizlar tomonidan har yili beriladigan 600 ming rupiy pulning qanday sarflanayotganligini nazorat qilish uchun Kobulda inglizlarning doimiy rezidensiyasi ochilishi ham mazkur shartnomada o'z aksini topgan edi. Bu bandlardan ham bilib olish mumkinki, Afg'oniston mavjud shartnomaga amal qilar ekan Rossiya imperiyasi bilan faol diplomatik aloqlarni yurita olmas edi³. Buyuk Britaniya tashqi diplomatik aloqalarni to'liq o'z qo'liga oladi.

Ammo Yoqubxon ning taslimchilik siyosati uzoq davom etmadi. Toshkentda istiqomat qilib turgan Abdurahmon 1880-yildan boshlab Afg'onistonda o'z hukmronligini o'rnata boshlaydi. Bu esa Britaniyani ham o'z siyosatini o'zgartirishga majbur eta boshladi. Shuningdek, Afg'onistonning Amir Abdurahmon boshchiligidagi davri tarixi haqida yo'zilgan ko'pgina kitoblarda uning hududdagi ingliz-rus raqobatidan unumli foydalanishga urunishlari haqida yozib qoldirilgan. Jumladan Amir doimo o'z hududini kengaytirish yo'lidan boradi. Bunda inglizlarning ham qo'llab quvvatlashi ta'sir etgan edi. Chunki ular hukmdorning shimoliy hududlar evaziga hukmronligini kengaytirish siyosatini qo'llab quvvatlagan. Unga moddiy va harbiy qurol yarog'lar yordamida yordam berish ham inglizlar tomonidan amalga oshirilgan edi⁴. Bu kabi holatlar Abdurahmon boshqaruvi davridan boshlab Rossiya imperiyasining Afg'oniston bilan munosabatlarining sovuqlashuviga olib keladi.

Bunday holatda Rossiya imperiyasining Afg'oniston masalasiga oid qarashlari o'zgarib, inglizlar bilan raqobat kuchaya boshlaydi. Chunki bunga bir necha sabablar ta'sir o'tkazgan. Birinchidan, Hindistondagi ichki vaziyatlar, chunki bu davrga kelib Buyuk Britaniya Hindistondagi vaziyatlar xavotirga tushar Afg'onistondagi mustaqillik uchun kurashlarning Hindlar orqasiga ham eksport qilinish ehtimoli mavjud edi. Ikkinchidan, Afg'onistonda yagona davlatning vujudga kelishi, bu omil natijasida ikki buyuk imperiyaning Afg'oniston masalasiga jiddiy yondashishi kerak ekanligi ma'lum bo'ladi.

Rossiya imperiyasining Afg'oniston bilan munosabatlariga imperiyasining 1881-yil yanvarda turkmanlarning Gyuk-tepa hududi egallanishi ham turtki bo'ladi. Chunki rus armiyasining keyingi nishoni Marv vohasi hisoblanib, bu hudud uchun Eron, Afg'oniston, Buyuk Britaniya ham davogarlik qilishi mumkin edi. Albatta, Marv shahri va u joylashgan hudud o'zining o'rta asrlardagi ahamiyatini yo'qotgan bo'lsada bu davrda Afg'onistonga nisbatan ikki imperiyaning qarashlariga ta'sir etar edi. Rossiya imperiyasining hududga

³ Mannonov A.M., Abdullayev N.A., Rashidov R.R. Afg'oniston tarixi . - T.: Barkamol fayz media, 2018. -140 b.

⁴ В. М. Массон, В. А. Ромодин. История Афганистана. –М.: Наука, 1965. -283 С.

yaqinlashib kelishi Marv aholisi oldiga muhim tanlov maslasini qo'yadi. "Siroj at Tavorix" asarida ham bu jihatga alohida etibor berilib quyidagilar qayd etadi:

" Marv vohasi yetakchisi Maxtumqulixon Afg'oniston hukmdoriga murojaat qilib o'z hududini Afg'onistonga qo'shib olishini so'raydi. Ammo Amir uning bu taklifini qabul qilmaydi. Amir Abdurahmon o'zining bu fikrini Marvning Afg'oniston doirasidan uzoqda joylashganligi bilan izohlaydi. Bu voqealardan so'ng Marv shahrining hukmron doiralari Rossiya imperiyasining hukmronligini va Markaziy Osiyodagi ta'sirini e'tirof etadilar. 1884-yil 1-yanvarda esa rus hukumatining tartiblari Marvda o'rnatila boshlanadi. Bu haqida Kaspiyorti viloyati gubernatori general-leytenant A.V.Komarov 1884-yil 13-fevralda Peterburgga imperator nomiga yo'llagan xabarnomasida shunday yozadi-"Bugun Ashxabodda to'rt turkman qabilalari yetakchilari, 24 ta saylangan delegatlar siz oliy hukmdorning qo'l ostingizga o'tish haqida o'zlari va Marv xalqi uchun qasamyod qildilar"⁵. Bundan ham bilib olishimiz mumkinki Rossiya imperiyasi qanchalik o'zining harbiy kuch qudrati va armiyasiga tayanib Markaziy Osiyoni egallashga urunmasin, ammo amalda bu harakatlarini mazkur hudud aholisining siyosiy irodasi sifatida ko'rsatishga harakat qilgan. Bu jarayon ham Afg'oniston bilan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Ammo shunga qaramay o'zaro savdo iqtisodiy munosabatlar rivojlanishdan to'xtab qolmaydi. 1885-yil oktabr oyida Zarafshon okrugi rahbari Turkiston general gubernatoriga yozgan hisobotida uzoq raqobatdan keyin O'rta Osiyo bozorlarida rus mollarining oldi sotdisi rovojlanayotganligi, O'rta Osiyo xaqlari talablaridan kelib chiqib ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat Buxoro amirligi bozorlarini balki Afg'oniston bozorlarini ham egallamoqdaligi ko'rsatiladi⁶. Ushbu ma'lumot ham Rossiya imperiyasi va Afg'oniston o'rtasidagi o'zaro munosabatlar nafaqat hududiy jihatdan yaqinlashuv, Ingliz raqobatiga munosib javob qaytarish zarurati balki o'zaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi bilan ham bog'liq edi.

1885-yil 18-mart sanasida Kushkada general A.V.Kamarov boshchiligidagi rus qo'shinlari Afg'onlar bilan to'qnashuvi ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarga ham ta'sir o'tkazadi⁷. Ushbu to'qnashuvda afg'onlar yakson

⁵ Сергеев Е.Ю. Большая игра, 1856-1907: мифы и реалии российско-британских отношений в Центральной и Восточной Азии. –М.: Товарищество научных изданий КМК, 2012.- 177 с.

⁶ Ураков Д. Ж. Туркiston генерал-губернаторлигининг қўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. - Т., 2021. -179 б.

⁷ Сергеев Е.Ю. Большая игра, 1856-1907: мифы и реалии российско-британских отношений в Центральной и Восточной Азии. –М.: Товарищество научных изданий КМК, 2012. -177 с.

qilinishiga qaramasdan Rossiya imperiyasi ta'sir doirasidagi hududlar va Afg'oniston chegaralari belgilanishi masalasining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ushbu masala ham Rossiya imperiyasining Afg'oniston bilan olib borgan diplomatik aloqalarining ajralmas qismi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mannonov A.M., Abdullayev N.A., Rashidov R.R. Afg'oniston tarixi . - T.: Barkamol fayz media, 2018. -344 b.
2. А.В.Постников. Схватка на Крыше мире. – М.: Памятники историчекой мысли, 2001. – 416 с.
3. В. М. Массон, В. А. Ромодин. История Афганистана. –М.: Наука, 1965. -550 с.
4. Н.А.Халфин. Россия и ханства Средней Азии.–М.: Наука, 1974. – 406 с.
5. Сергеев Е.Ю. Большая игра, 1856-1907: мифы и реалии российско-британских отношений в Центральной и Восточной Азии. –М.: Товарищество научных изданий КМК, 2012.- 454 с.
6. Ураков Д. Ж. Туркистон генерал-губернаторлигининг кўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. - Т., 2021. -216 б.